



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA FAN VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



2021-yil uchun



Fan va innovatsiya



Keyingi yillarda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-son qarori mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga dasturiy amal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Quyida tayanch doktorantura va doktoranturasi mavjud institutlar soni, ularda tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar, bitiruvchilar hamda ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar va ulardagi xodimlar soni hisobot yilida ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar doirasida keltirilgan. Shu bilan birga hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida innovatsiyalar joriy qilgan tashkilotlar soni va ularda joriy qilingan innovatsiyalar soniga oid statistik ma‘lumotlar keltirilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni

(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)

Jami tashkilotlar soni



2021- yilda respublikamizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 7 tani tashkil etib, ulardan 2 tasi ilmiy tashkilotlar va 5 tasi oliy ta‘lim tashkilotlarini tashkil etadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 199 nafar bo‘lib, qabul qilinganlar 93 nafarni va bitiruvchilar 34 nafarni tashkil etgan.




Tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar soni

(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha tayanch doktorantura
mavjud institutlarda tahsil oluvchilar soni
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



2021-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar soni **199** tani tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 136 taga ko‘paygan.

Tahsil oluvchi ayollar soni

kishi




Tahsil oluvchi erkaklar soni

kishi




Respublikada fan sohalari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi-tayanch
doktorantura institutlarining asosiy ko'rsatkichlari
(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)


Tayanch doktorantura
institutlari soni, birlik:




Tabiiy fanlar



Texnika fanlari



Tibbiyot fanlari




Ijtimoiy fanlar




Gumanitar fanlar



Qishloq xo'jaligi fanlari




Qabul qilingan falsafa doktori darajasi
izlanuvchilari soni, kishi:




Tabiiy fanlar



Texnika fanlari




Tibbiyot fanlari



Ijtimoiy fanlar



Gumanitar fanlar



Qishloq xo'jaligi fanlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni

(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)

Jami tashkilotlar soni



2021-yilda jami tashkilotlar soni 4 tani tashkil etib, ulardan ilmiy tashkilotlar 2 ta va oliy ta'lim tashkilotlar esa 2 tani tashkil etdi. Jami doktoranturada tahsil oluvchilar soni 10 ta nafar, ulardan ilmiy tashkilotlar 3 ta, va oliy ta'lim tashkilotlar va 7 ta nafarni tashkil etdi

Tahsil oluvchi ayollar soni

kishi




Tahsil oluvchi erkaklar soni


kishi




**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha
doktoranturada tahsil oluvchilar soni**
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



Ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni
3 ta sektorga ajratib ko'rsatilgan
(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)




Sektorlar bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini
bajargan xodimlar soni
(2021-yiling yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



Qoraqalpog'iston Respublikasida hududlar bo'yicha
texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan tashkilotlar soni
(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



Qoraqalpog'iston Respublikasida hududlar bo'yicha texnologik innovatsiyalarni joriy qilingan tashkilotlar soni 6 tani tashkil etdi.



O‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



Innovatsiya ta'rifi bo'yicha, tashkilot uchun yangi, ichki bozor uchun yangi yoki butun dunyo uchun yangi bo'lgan ma'lum miqdordagi yangilikni o'z ichiga oladi. 2021- yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha jami soni 43 ta bo'lib, shundan yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahrida 22 tani tashkil etgan.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha joriy qilingan jami innovatsiyalar
soni

(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)

Jami innovatsiyalar – 7

Texnologik –6

Marketing – 1



Innovatsiyalar 3 turga bo‘linadi. Bular texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalardir. 2021- yilda jami joriy qilingan innovatsiyalar 7 tani tashkil etib, shundan 6 tasi texnologik innovatsiyalar, 1 tasi marketing innovatsiyalardir. Innovatsion faoliyat – g‘oyalar transformatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni bozor uchun joriy etish bilan hamohang bo‘lgan faoliyat hisoblanadi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izoh

Oliy ta’limdan keyingi – doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va ximoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydigan ta’lim turi.

Tayanch doktorantura – falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli.

Doktorantura – fan doktori (Dostor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli

Ilmiy-tadqiqot xodimlari – ijodiy faoliyati tizimli ravishda ilmiy bilimlar hajmini oshirishga va ushbu bilimlarni qo‘llashning yangi yo‘nalishlarini topishga qaratilgan, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadigan jismoniy shaxslar.

Innovatsiya – ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasi, realizatsiya qilish jarayonida yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmatlar yoki jarayon, shuningdek ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy qarorlari, ma’muriy, tijorat yoki boshqa xarakterdagi, texnologiyalarning, mahsulotlarning va xizmatlarning bozorlarda yangilanishiga yordam berilishi tushuniladi.



Press-relizni tayyorlash
uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi



Тел.: +99861 222-79-83



www.qrstat.uz